

**OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.29/2025.27.12. Ped/01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ISOQOV SAYDULLA SOBIRJONOVICH

**OILA VA TA'LIM TIZIMI ORQALI YOSHLARDA SOTSIAL MOBILLIK
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI**

22.00.02 - Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
социологическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Sociological Sciences**

Isoqov Saydulla Sobirjonovich

Oila va ta'lim tizimi orqali yoshlarda sotsial mobillik samaradorligini oshirish
mexanizmlari 3

Исоков Сайдулла Собиржонович

Механизмы повышения эффективности социальной мобильности молодежи
через семью и систему образования 25

Isokov Saydulla Sobirjonovich

Mechanisms of increasing the effectiveness of social mobility in young people
through the family and educational system..... 51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 56

**OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.29/2025.27.12. Ped/01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ISOQOV SAYDULLA SOBIRJONOVICH

**OILA VA TA'LIM TIZIMI ORQALI YOSHLARDA SOTSIAL MOBILLIK
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI**

22.00.02 - Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**SOTSIOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/S4 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.namdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yunusov Alisher Bobomuradovich
sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xolbekov Abdug'ani Jumanazarovich
sotsiologiya fanlari doktori, professor

Abduramanov Xamid Xudaybergenovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.29/2025.27.12. Ped/01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Chilonzor ko'chasi, 25-uy; e-mail: mvaointi@exat.uz, mvaointi@gmail.com; veb-sayt: www.moiti.uz)

Dissertatsiya bilan Oila va gender ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Chilonzor ko'chasi, 25-uy; e-mail: mvaointi@exat.uz, mvaointi@gmail.com; veb-sayt: www.moiti.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "____" _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

N.M. Egamberdiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

R.B. Hojiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

Sh.M. Sodiqova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar natijasida aholining sotsial mobilligi ortib bormoqda. Vorisiylik qonuniyatiga ko'ra eski tizimdagi yashovchan xususiyatga ega konstruktiv qadriyatlar saqlanib qolgan holda, ijtimoiy ehtiyoj bo'lmagan qadriyatlar o'rniga yangicha ijtimoiy-madaniy qadriyatlar shakllana boshlaydi. Bunday jarayonlar oqibatida jamiyat a'zolari, shu jumladan yoshlar ijtimoiy guruhlari tabiatiga o'zgarish yasaydi va yangicha talablarga moslashishni zaruriyatga aylantiradi. Sotsial mobillikdagi ratsionallik ana shunday zaruriy jarayon sifatida alohida olingan shaxslarni ham, sotsial guruhlarni ham yangi darajaga olib chiqadi. Yoshlarning sotsial mobillik samaradorligi, xususan oila va ta'lim tizimi hamkorligi orqali mobillik samaradorligi mohiyatan jamiyat rivoji uchun bazis vazifasini o'tab beradi.

Zamonaviy jamiyatda sotsial mobillikni tahlil qilishning muhim omili - bu shaxs va jamiyatning intellektual resursini tashkil etuvchi ta'limning ratsionallik darajasidir. Ta'lim sotsiologiyasi bo'yicha mashhur olim P'yer Burdye jamiyatni "nou-xau" yaratish qobiliyatini eng qimmatli korporativ kapital sifatida ta'kidlaydi¹. Oila va ta'lim hamkorligisiz shaxs kamolotini kafolatlab bo'lmaydi. Oila va ta'lim ijtimoiy me'yor-ko'nikmalarni idrok qilnadigan va "ijtimoiy energiya"ni o'zlashtirishga imkon beradigan ijtimoiylashuv agentligi hisoblanadi. Shu bilan birga, muayyan madaniy sifat darajasidagi oila va ta'lim institutlarining mavjudligi umumiy madaniy-intellektual kapitalni ta'minlovchi mexanizmga aylanadi.

Mamlakatimizdagi o'zgarishlar yoshlarni yangi ko'nikma va me'yorlarni o'zlashtirish talabini qo'yimoqda. Mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 19 milliondan ortiq yoki aholining 55 foizini tashkil qiladi. Mehnat bozoriga har yili 600 ming yoshlar kirib kelayotgan bo'lsa, kelgusi 10 yilda bu raqam 1 millionga yetadi². Yoshlarga o'z kelajagini ta'minlash yo'lidagi harakatlarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash mamlakatimizning yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturida ko'zda tutilganidek yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risidagi" 637-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga 2025-yil 26-dekabrdagi Murojaatnomasi, 2022-yil 7-martdagi "oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"ga PF-87-sonli Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni, 2020-yil 30-iyundagi PQ-4768-son "O'zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" qarori hamda "oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 7-martdagi PF-87 sonli farmoni, "O'zbekiston — 2030" strategiyasining "Har bir insonga o'z

¹ Любченко В.С. Социальная мобильность в современном обществе: основные тенденции // Вестник ЮРГТУ (НПИ). 2013. № 1. С. 196

² https://uza.uz/uz/posts/yoshlar-uchun-yangi-imkoniyatlar-belgilandi_472271

salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish" yo'nalishi bo'yicha 2025 yil 30 yanvardagi PF-16-sonli farmoni, 2023-yil 21-dekabrda qabul qilingan "oila va xotin-qizlar qo'mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-208-son farmonlari. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-fevraldagi "Oilalarni kambag'allikdan chiqarishga qaratilgan ko'mak choralarini ko'rsatishga doir tartib-taomillarni takomillashtirish to'g'risida" 125-son qarori, 2025 yil 10 martdagi 149-sonli "Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to'g'risidagi" nizomi, "2022-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 7-iyundagi 310-son qarori. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 27-dekabrda "Oila instituti huquqiy asoslarini takomillashtirish va oilaviy qadriyatlarni saqlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" KQ-29-V-son qarori. Shuningdek, mazkur faoliyat sohalariga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish"ning ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oila va ta'lim tizimi hamkorligi orqali yoshlarda sotsial mobillik samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini o'rganish azaldan mutafakkirlarning diqqat markazida bo'lgan. Insondagi sotsial xarakatchanligini asosiy omillarini ilmiy o'rganish dastlab Yevropa ijtimoiy-falsafiy ta'limotlari namoyondalaridan M.Veber, T.Parsons, P.A.Sorokin, E.Toffler, J.Goldrop, P.Bur'de J.Urri, M.Sheller, P.Blau, B.Barber, A.Born, J.Payn va S.Irvinlar tomonidan ilgari surildi³. Xususan "Sotsial mobillik" konsepsiyasining dastlabki batafsil tushuntirishlarni P.A.Sorokin olib bordi, B.Barberning izlanishlariga ko'ra, sotsial mobillik - yuqori yoki quyi ijtimoiy sinflar o'rtasida yuqoriga yoki pastga harakatlanishni anglatadi. T.Parsons

³ Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. / Общ. ред., сост. и предисл. А. Ю. Согомонов: Пер. с англ. – М.: Политиздат, 1992; Барбер Б. Структура социальной стратификации и тенденции социальной мобильности // Американская социология. Перспективы, проблемы, методы. М., 1972; Урри Дж. Мобильности. пер. С англ. А.В. Лазерева, вступ. статья Н.А.Харламова. – М.: Издательская и консалтинговая группа «Праксис», 2012; Born, A. (2023) The price of the ticket revised: Family members' experiences of upward social mobility. (pp. 111–130). The Sociological Review; Blau Peter V. and Otis Dudley Duncan. The American Occupational Structure. New York, 1967; Lipset S. M. and Bendix R. Social Mobility in Industrial Society. Berkeley, 1959; Erikson Robert and John J. Goldthorpe. National variation in social fluidity // CASMIN project working paper, no 9. 1986; Boudon R. L'inégalité des chances. La mobilité sociale dans les sociétés industrielles. Nouv. éd. rev. Et augm. Paris: Hachette, 1985; Барбер Б. Структура социальной стратификации и тенденции социальной мобильности // Американская социология: перспективы, проблемы, методы / Отв. ред. Г.В. Осипов. - М.: Прорпеец, 1972; Rubinstein W D. Wealth and Inequality Britain. London, 1980; Heath A. Social Mobility. London, 1981; Deer C. Higher Education Access and Expansion: The French Experience // Higher Education Quarterly. 2005; Givord P., Goux D. France: mass and class-persisting inequalities in postsecondary education in France // Stratification in Higher Education. 2007; Boliver V. How Fair Is Access to More Prestigious UK Universities? // The British journal of sociology. 2013; Кузмина Е.И. Образовательная мобильность в условиях цифровизации обучения: теоритические подходы и исследовательские практики. Дисс.соиск.ус.степ.кан.соц.наук. –М.:2022 с.44.(170 с).

strukturali funksionalizm nazariyasi doirasida sotsial mobillikni status-rol tizimi asnosida o'rgandi. Angliyalik sosiolog Jon Urriga ko'ra zamonaviy jamiyatda mobillik – bu insonlar va predmetlarning ko'p sonli ko'chishidir. Angliyalik A.Born muvaffaqiyatga erishgan oila a'zolarini narrativ suhbatlarini sosiologik kontekstda tahlili qildi.

Sotsial mobillik mavzusida Sorokindan keyin nisbatan keng ko'lamli sosiologik izlanishlarni quyidagi tadqiqotlarchilar o'tkazishgan: mamlakat ichidagi xarakatchanlikni P.Blau va O.Dadli o'tkazishdi; ushbu mavzudagi xalqlararo mobillik tadqiqotlarini esa S.Lipset va R.Bendikslar o'tkazishdi; turlicha mafkuraviy yo'nalishlardagi jamiyatlardagi sotsial mobillik jarayonlarini R.Erikson va J.Goldroplar o'rganishdi; B.Barber tadqiqotlarida tabaqalanish va sotsial mobillik munosabati tadqiq etilgan; muvaffaqiyatga erishgan insonlarda sotsial mobillikning sosiologik tahlilini V.Rubinshteyn o'tkazdi; sotsial mobillik jarayonlarida gender masalalarini E.Xit tadqiqotlarida amalga oshirilgan; oilaning ijtimoiy mavqei va daromadlarini yuqoriligi ta'limdagi sotsial mobillik jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi xaqidagi tadqiqotlarni P.Burd'ye, R.Budon, S.Deyer, P.Givord, V.Boliver amalga oshirishgan. O.Duncan va P.Blauga ko'ra avlodlararo xarakatchanlikning sabablari sifatida ota-onalarni g'amxo'rliqi keyingi avlodning sotsial mobilligini asosi sifatida ko'rishadi.

Asrimizning boshlarida e'lon qilingan “yangi mobillik paradigmasi”siga “new mobilities paradigm” ko'ra mobillikni jamiyatni shakllantirishdagi rolini ifodalovchi yorqin nazariyalar sifatida “Actor-network theory”, kosmopolitizatsiya nazariyasi, “assemblage theory” nazariyasi yoki “globallashuvning atropologik nazariyasi” keltirib o'tilgan⁴.

So'nggi yigirma yillik davrda mobillikni global miqyosda “Forum vies mobiles” instituti mobillikni ditsiplinar soha sifatida moslashuvchan bozor sharoitlarida rivojini o'rganmoqda⁵. Shuningdek Buyuk Britaniyada “Ijtimoiy mobillik komissiyasi” faoliyat yuritadi u 2010 yildagi “Ijtimoiy farovonlik to'g'risida”gi qonunga muvofiq tashkil etilgan idoraviy bo'lmagan maslahatchi davlat organi sifatida faoliyat olib bormoqda⁶.

Jahon hamjamiyatida yoshlarga oid siyosatni amalga oshirish doirasida sotsial mobillikka samarali ta'sir ko'rsatuvchi amaliy jarayonlarni o'z ichiga olgan dasturlar faoliyatga yo'naltirilmoqda. Jumladan, Evrodesk dasturi amaliyotga tadbqiqilingan bo'lib u yoshlarni mobillikni oshirish bo'yicha Yevropa imkoniyatlari xaqidagi ma'lumotlarni yetkazadi va uni amalga oshirishning xuquqiy mexanizmlarini shakllantiradi; Yoshlarni ta'lim orqali yuksalish imkoniyatlarini oshirish uchun AQSH hukumati Federal Pell Grant dasturi orqali kam ta'minlangan talabalarga moliyaviy yordam beradi; Britaniyada “Pupil Premium” dasturi bo'yicha tanlangan maktablarda davlat ta'minotidagi bepul ovqatlar tashkil etildi. Mazkur tadqiqotga ko'ra ushbu maktab bitiruvchilar boshqa tengdoshlaridan ko'ra 14% ko'p maosh oladigan ishlarda faoliyat olib borayotganligi ma'lum bo'ldi; Xalqaro

⁴ The new mobilities paradigm for a live sociology. Mimi Sheller Drexel University, USA. Current Sociology Review 2014; Unpacking cosmopolitanism for the social sciences: a research agenda. Ulrich Bech, Natan Sznajder. BJS. Volume 61; Arjun Appadurai (2006) The right to research, Globalisation, Societies and Education, Vol. 4, No. 2, July 2006.

⁵ <https://en.forumviesmobiles.org>

⁶ <https://www.gov.uk/government/organisations/social-mobility-commission>

hamjamiyat tomonidan Afrika yoshlarini ijtimoiy mobillik imkoniyatlarini oshirish uchun “Oltin yoshlar” dasturi ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda; O‘zbekistonda ham “El-yurt umidi” jamg‘armasi, qo‘shni Qozog‘istonda esa “Bolashak” jamg‘armalari orqali yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, xorijiy davlatlarda ta’lim olishlari, stajirovka o‘tashlari uchun davlat grantlari ajratiladi⁷.

Mamlakatimiz olimlaridan jamiyatdagi o‘zgarishlar sharoitida yoshlardagi sotsial mobillik jarayonlarini A.Abdullayev, tadbirkorlikni sotsial mobillik omili sifatida N.Ahmedov, sotsial mobillik natijasida stratifikasion jarayonlardagi sotsial omillarni B.Berdiyev, Yangi O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy-innovasion jarayonlardagi transformatsiyalashuvida sotsial mobillik masalalarini S.Otamurodov, oila mustahkamligini sotsial omillarini R.Umrzakova, yoshlarni kasb tanlashlarida oilaga bog‘liq masalalarini N.Zaretdinova, sotsiologlardan A.Yunusov va B.Tojibayevlar yoshlardagi ijtimoiy xatti-harakatlaridagi deviantlik natijasida sotsial maqomidagi o‘zgarishlarni o‘rganishdi⁸.

MDH davlatlari olimlarining, xususan, L.Goryunova ta’lim tizimda kasbiy mobillikni, N.Reutova yoshlardagi sotsial mobillik mexanizmlarini, Ye.Kuxterina yoshlardagi sotsial mobillik omillarini, M.Igoshev kasbiy mobillikning ijtimoiy-pedagogik omillarini, N.Shnarbekova Qozog‘iston oliy ta’lim tizimini ijtimoiy tengsizlik jarayonlaridagi rolini o‘rganishgan⁹.

Zamonaviy Sotsiologiyada xorijiy olimlardan Jon Urri sotsial mobillikni davriy sirkulyasiya sifatida talqin qilgan bo‘lsa, R.Bates ta’limning ijtimoiy vazifalariga ko‘proq urg‘u bergan, Globallashuv ta’sirida ta’limni boshqarishda qadriyatlarini o‘zgarishini B.Mulford, Martin Carnoy esa ta’limning globallashuvni tadqiq qilgan, sotsial mobillikni intellektual qobiliyatlarining tabiati va darajasiga asoslanishini Hasan Jashari aniqlagan, Fransiyalik mashhur olim P’yer Burd’ye sotsial mobillik jarayonlariga oila fundamental ta’sir ko‘rsata olishini asoslagan

⁷ Opening Doors, Breaking Barriers: A Strategy for Social Mobility: Update; <https://studentaid.gov/understand-aid/types/grants/pell>; ⁷ <https://eyuf.uz/site/infografika>; ⁷ <https://bolashak.gov.kz/kz/o-kompanii>; <https://eurodesk.eu/>; <https://goldyouth.org/contact/>;

⁸ Абдуллаев А.Г. Жамиятни модернизациялаш шароитида ёшларнинг социал мобиллигини такомиллаштириш механизмлари. Социология фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент 2021; Ахмедов Н.Х. Социал мобиллик – Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikни ривожлантириш омили сифатида (социологик таҳлил). соц.фанл.бўйича фалс.докт.(PhD) диссер. Автореферати. Тошкент-2021; Бердиев Б.Р. “Ўзбекистонда стратификацион жараёнлар: социал ҳолат ва истикбол” соц.фанл.бўйича фалс.докт.(PhD) диссер. Автореферати. Тошкент-2021; Отамуратов С.С. “Янги Ўзбекистон ёшларининг ижтимоий-инновацион жараёнлардаги трансформациялашуви: социологик таҳлил” соц.фан.докт. (DSc) дисс. Автореферати. Тошкент-2021; Умурзакова Р.А. Ўзбекистонда оила муҳкамлигининг социал омиллари. Соц. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2006; Заретдинова Н.К. “Оиладаги ёшларнинг касб танлашини социометрия усули билан тартибга солиш” соц.фанл.бўйича фалс.докт.(PhD) диссер. Автореферати. Тошкент-2021; Юнусов А.Б. Ўсмир-ёшларда ижтимоий девиантлик ҳолатларини социологик хусусиятлари. Соц.фан.номз..диссер. –Тошкент: ЎЗМУ, 2004; Тожибаев Б.Т Ўзбекистон ўқувчи-ёшларида девиантлик профилактик омилларининг социологик таҳлили. Социология фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.: 2019.

⁹ Горюнова Л.В. Профессиональная мобильность специалиста как проблема развивающегося образования России: диссертация ... доктора педагогических наук / Л. В. Горюнова. Ростов-на-Дону, 2006; Реутова М.Н. Механизмы регулирования социальной мобильности молодёжи в условиях трансформация Российского общества. Дисс. ... канд. социол. наук: 22.00.04 / М.Н.Реутова. – Белгород, 2004; Кухтерина Е.А. Социальная мобильность молодёжи. Дисс. ... канд. социол. наук: 22.00.04 / Е.А.Кухтерина. – Тюмень, 2005; Игошев Б.М. Организационно-педагогическая система подготовки профессионально мобильных специалистов в педагогическом университете / Б. М. Игошев. Москва: ВЛАДОС, 2008; Шнарбекова М.К. Роль высшего образования в воспроизводстве социального неравенства на рынке труда Казахстана// Высшее образование в России. 2021.

bo'lsa, Angliyalik tadqiqotchi J.Peyn yangi mobillik modellarini yaratishga imkon beradigan ijtimoiy o'zgarishlarni o'rgandi. AQSHlik olim Frensis Fukuyamaning so'zlariga ko'ra, ilmiy tadqiqotlar, asosan, odamlarning jamiyatdagi mavqei va ularning ta'lim darajasi o'rtasidagi yuqori bog'liqligini asoslagan, rivojlangan davlatlarda tabaqalanish darajasidan qat'iy-nazar sifatli ta'lim olish imkoniyatlari ijobiy tomonga o'zgarishlarni R. Breen o'rganishgan bo'lsa, ijtimoiy nochor toifadagi yoshlarning universitetlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish esa elitaning demografik tuzilishini diversifikatsiya qilish masalasini J.Anthony tomonidan o'rganilgan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tadqiqot manbalaridan foydalangan holda oila va ta'lim institutlari orqali sotsial mobillikning samarali mexanizmlariga oid ilmiy qarashlar mazkur dissertatsiyada yoritishga harakat qilindi.

Mamlakatimizda insonning ijtimoiy mobilligini amalga oshirishga ta'sirining namoyon bo'lishning muayyan xususiyatlari o'rganilgan bo'lsada, oila va ta'lim orqali yoshlarda sotsial mobillikning o'ziga xos aspektlari yetarli darajada o'rganilmagan. Tadqiqotimiz davomida sotsial mobillik omillari, mexanizmlari, bu jarayonga tabaqalashuv, globallashuv jarayonlarini va oilaning ta'sirini ko'rib chiqishga zarurat tug'ildi. Bu kabi zaruriy jarayonlar dissertant tomonidan mazkur mavzuni tadqiqot predmeti sifatida maxsus o'rganishga undadi.

Dissertatsiya mavzusining oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining № 04.12.512-son "O'zbekistonda ma'naviy va oilaviy tarbiya masalalari" mavzusidagi ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi: mamlakatimizda yoshlarning oila va ta'lim tizim orqali sotsial mobillik samaradorligini oshirish mexanizmlarini aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari:

sotsial mobillik nazariyalarining mazmun-mohiyatini o'rganish;
globallashuv jarayonlari va uning yoshlardagi sotsial mobillik jarayonlariga ta'sirini sosiologik aspektda o'rganish;

oilaning yoshlardagi sotsial mobillik jarayonlariga ta'sirini o'rganish;
islohotlar davrida tobora chuqurlashib borayotgan tabaqalashuvning yoshlardagi sotsial mobillik jarayonlariga ta'sirini sosiologik aspektda o'rganish;

O'zbekistondagi strukturaviy islohotlarni yoshlardagi sotsial mobillik jarayonlariga ta'sirini strukturaviy-funksional kontekstda o'rganish;

yoshlarni sotsial mobilligida ota-onalarning ijtimoiy mavqei va ularning moliyaviy imkoniyatlarini ta'sir darajasini aniqlash;

yoshlar sotsial mobilligini samarali mexanizmlari sifatida informatsion texnologiyalarni va xorijiy tillarni egallashga bo'lgan intilishini ta'sir dinamikasini aniqlash.

Tadqiqot ob'ekti: Biz tadqiqotimiz ob'yekti sifatida asosan davlat ta'lim muassasalari xususan, umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichi talabalarida oila va ta'limning sotsial mobillikka ta'sir jarayonlari qamrab olingan.

Tadqiqotning predmetini oila va ta'lim tizimi orqali yoshlarda yuz beradigan sotsial mobillik mexanizmlarini o'ziga xos xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, hujjatlarni tahlil qilish, anketali so‘rovnoma, ekspert so‘rovi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Yoshlarda ijtimoiy harakatchanlikni kuchaytirishning ko‘p o‘lchovli inklyuziv sosiologik indikatorlari (inson kapitali, iqtisodiy faollik, ijtimoiy kapital, hududiy va vertikal harakatchanlik, institusional qo‘llab-quvvatlash) ishlab chiqilgan;

Yoshlarning sosial mobilligi kompetensiyaviy kapital (kognitiv, adaptiv, raqamli, sosial-psixologik) va institusional muhit (ta‘lim, mehnat bozori, ijtimoiy lift) o‘rtasidagi konversiya mexanizmi (daromad oshishi, lavozim o‘shishi, kasbiy transformatsiya) orqali kompleks baholangan;

Yoshlar sosial mobilligini tezlashtiruvchi integrativ sosiomadaniy omillardan proaktivlik, raqamli madaniyat, ko‘p tarmoqli malaka, dual ta‘lim va amaliyot, startaplar dinamik jarayon sifatida ishlab chiqilgan;

Yoshlarning raqobatbardoshligi kompetensiyaviy, ijtimoiy, institusional va psixologik funksiyalar integratsiyasi negizida resurslarni samarali ro‘yobga chiqarish jarayonidagi strategik transformatsiya sifatida konseptuallashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Globalashuv jarayonlari, tabaqalashuv va oilaning yoshlardagi sotsial mobillik jarayonlariga ta‘sirini sotsiologik aspektida o‘rganilgan;

O‘zbekiston yoshlarida oila va ta‘limni sotsial lift sifatidagi o‘rni o‘rganilgan;

Ta‘lim tizimi orqali yoshlarda sotsial mobillik samaradorligini oshirish mexanizmlari tadqiq etilgan;

O‘tkazilgan maxsus tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, yoshlar sotsial mobilligi masalasiga daxldor mas‘ul tashkilotlarga yoshlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, respondentlar bilan o‘tkazilgan so‘rovnomalar, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, yoshlarni oila va ta‘lim orqali sotsial mobilligini o‘zgarish dinamikasini tizimli tahlil qilinganligi hamda uning natijalaridan ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni olib borishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyaning xulosa va tavsiyalaridan O‘zbekiston yoshlarini sotsial mobilligini samarali mexanizmlarini aniqlash orqali yoshlar kelajagini optimal darajada tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oila va ta‘lim orqali yoshlarda sotsial mobillik samaradorligini oshirish mexanizmlarini tadqiq etish bo‘yicha qo‘lga kiritilgan natijalar, ilmiy xulosa va takliflar asosida:

O‘zbekistondagi strukturaviy islohotlar natijasida istiqbolning jozibadorligi yoshlarning ijtimoiy mobilligida samarali ta‘sir ko‘rsatishini strukturaviy-funksional kontekstda asoslanganligi to‘g‘risidagi ilmiy ma‘lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar va kadrlar bilan ta‘minlash departamentida ma‘naviy-marifiy ishlar targ‘ibotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar va kadrlar

bilan ta'minlash departamentining 2023-yil 25-dekabrda 2/3380-sonli dalolatnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi tizimida o'tkazilayotgan ma'naviyat va ma'rifat darslarida Oila va ta'lim tizimi orqali sotsial mobillik samaradorligini oshirish mexanizmlarini aniqlashga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Ta'lim sohasidagi samarali islohotlar natijasidagi yoshlarni o'qishdan ajralmagan holda muayyan faoliyat bilan mashg'ulligi yoshlardagi sotsial mobillikka ijobiy ta'sir ko'rsatishi oid sotsiologik taxlil materiallardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023 yil uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar dasturining VII yo'nalishida belgilangan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimini takomillashtirish, jumladan ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirish" 31-bandi "Mamlakatda yoshlar ma'naviy tarbiyasini tizimli tashkil etishga qaratilgan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" asosida barcha tizimlarda belgilangan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni uslubiy ta'minlash" mavzusidagi targ'ibot ishlarini o'tkazishda foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti 2023-yil 2-iyundagi 211-sonli dalolatnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiyalar va xulosalar mamlakatimiz yoshlarining oila va ta'lim orqali sotsial mobillik samaradorligini oshirish mexanizmlarini aniqlashga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishda xizmat qilgan.

O'quvchi-yoshlar mansub oilaning ijtimoiy mavqei va iqtisodiy imkoniyatlari qanchalik yuqori bo'lsa, yoshlardagi sotsial mobillikni yuksalish imkoniyatlari ham shunchalik yuqori bo'lishi institusional ta'sirni yuqori bo'lishi xaqidagi amaliy taklif va tavsiyalardan "Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi so'rovnomalarida foydalanilgan ("Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazining 2023-yil 27-iyundagi 1-16/10-sonli dalolatnomasi). Tadqiqot ishida oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasidagi sotsial mobillik samaradorligini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkichlardan "Yoshlar qadriyatlarini" instrumentariy (savolnoma) shakllanishida foydalanilgan;

Global o'zgarishlarda aks etayotgan intellektual ko'nikmalarni (informatson texnologiyalarni va xorijiy tillarni) egallashga bo'lgan intilish yoshlarda shaxsiy yuksalishini ta'minlovchi imkoniyat sifatida anglanishi sotsial mobillikka samaradorligini ta'minlovchi muhim omil ekanligi doir materiallardan Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutining 2022 yilda Xorazm viloyati yoshlari o'rtasida tashqi migratsiya masalalarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi "Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti"ning 2023-yil 31-maydagi 01-14/139-sonli dalolatnomasi). Natijada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yilarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash va yoshlar muammolarini tizimli o'rganish va ularni hal etishga doir ilmiy prognozlarni ishlab chiqish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanlar hamda 1 ta xalqaro konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, (shundan 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnalda) ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida 7 ta maqola (shundan 3 tasi xorijda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, yettita paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya tadqiqotning asosiy matni 141 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublikamiz fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi hamda xorijiy ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“Yoshlar sotsial mobillikning nazariy jihatdan o'rganilishi”** deb nomlangan birinchi bobida “Sotsial mobillik” atamasini turli xil mutafakkirlar har xil ta'riflari tahlili, shuningdek sotsial mobillikka oid klassik va zamonaviy qarashlar o'rganilgan. Sotsial mobillik masalasida zamon va makon nuqtai-nazaridan turli vaziyatlar mavjud bo'lganligi sababli uning turfa-xil tahlillari ko'rib chiqilgan.

Sotsial mobillikning turli shakllarini yuzaga keltiruvchi ijtimoiy jarayonlar keyingi davrlarda jamiyat sotsial strukturasidagi jiddiy o'zgarishlar natijasida murakkablashib ularni o'zaro qorishishi oqibatida ana'anaviy mobillik omillari armiya, din, muvaffaqiyatli nikoh, milliy mansublik kabilarni o'rniga ta'lim, oila va kasb-korlik singari endogen omillar bilan bir qatorda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodik taraqqiyoti kabi ekzogen omillar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sotsial mobillik ko'lamini nisbiy cheksizligini ta'minlovchi jarayon bu globallashuv jarayonidir. “Global” shaxslar harakatlanadigan yangi imkoniyatlar yangi aloqa vositalari va ularni amaliyotini ta'minlovchi ijtimoiy-xuquqiy mexanizmlar paydo bo'ldi. Zamonaviy dunyo fuqarosi o'rta asr xukmdorlarida bo'lmagan texnologik imkoniyatlardan foylanishi, katta shaharlarda ishlashi, geografik jihatdan bog'liq bo'lmagan manbalardan ma'lumotlar bazasini to'plashi mumkin. Globallashuv nafaqat odamlarni, texnologiyalarni balki turli-tuman ijtimoiy g'oyalarni ham xalqaro chegaralar orqali harakatlanishi tushuniladi. Globallashuv jarayonida mahsulotlar va texnologiyalar bilan bir qatorda g'oyalar va madaniyatlar ham erkinroq aylanadi. Global kontekstda bu nafaqat iqtisodiy taraqqiyotni balki jadal ijtimoiy evolyusiyani ham ta'minlab berdi. Mobillikning asosiy qoidalaridan biri bu oldin vertikal o'sish va keyinchalik gorizont bo'ylab ijtimoiy-madaniy siljishlar kuzatiladi.

Mazkur bobning uchinchi paragrafida tabaqalashuvning yoshlar sotsial mobillik jarayonlarida roli mavzusida bo'lib unda jamiyatda tabaqalanish ijtimoiy maqomining mavjudligi bilan bog'liqligi va o'z navbatida insonlararo ijtimoiy


maqomlar o'rtasidagi harakat hodisasini sotsial mobillikdagi o'zgarishlar nazarda tutildi. Ya'ni muayyan sotsial harakatlar natijasida shaxsning sotsial maqomini o'zgartirar ekan bu yerda sotsial mobillik yuz beradi.

Ijtimoiy tabaqalanish va sotsial mobillik o'rtasidagi bog'liqlik masalasi mobillikning turli xil nuqtai-nazaridan talqin qilinishi mumkin. "Mobillik" tadqiqotlarida strukturaviy mobillik muxim o'rin tutadi. Strukturaviy mobillik iqtisodiy, kasbiy, ta'lim tuzilmalaridagi keng ko'lamli o'zgarishlarning natijasi bo'lib, tabaqalanish tizimi imkoniyatlarini oshirishni anglatadi. Strukturaviy mobillik ba'zan majburiy mobillik deb ataladi, masalan, jamiyatda ijtimoiy sakrash xodisalari yuz berib keng ko'lamli va chuqur islohotlar sotsial ehtiyoj darajasiga ko'tarilishi va natijada sub'yektiv motivatsiyadan qat'i-nazar, harakatlanish jarayonlarida shaxsning ishtirok etishini ko'zda tutadi. Bunday o'zgarishlar natijasida guruh sotsial mobillik masalan, keng ko'lamli migrasion jarayonlarga sabab bo'ladi. Shuningdek zamonaviy jamiyatlarda sotsial mobillikka dohil tabaqalashuvning ikki turini ajratish mumkin. Birinchisi, turli mukofotlar, daromadlar, obro'-e'tibor va hokimiyat kabi asosiy ijtimoiy resurslardan turlicha foydalanish bilan tavsiflangan imkoniyatlar tengsizligi. Ikkinchisi, odatda, imkoniyatlar tengsizligi, ya'ni ijtimoiy sinf pozitsiyalariga kirishning tengsizligi sifatida tanilgan.

Dissertatsiyaning **"Oila va ta'lim tizimining sotsial mobillikka ta'sir ko'rsatuvchi omillari"** deb nomlangan ikkinchi bobida oila va ta'lim sotsial mobillik omillari sifatida insonning sotsial mobilligini amalga oshirishning institutsional shaklida namoyon bo'lishi hamda oilada orttirilgan malaka va ko'nikmalardan shaxsning joriy ijtimoiy muhitda va professional kar'yerada yuksalish imkoniyatlari tahlil qilingan, shuningdek ta'lim jarayonida sotsial liftlarni o'rni ham tadqiq qilingan.

Oila sotsial institut sifatida insonni muayyan sotsial statusga ega shaxs sifatida shakllanadigan uning kongnitiv taraqqiyotining dastlabki maqomini belgilab berar ekan, aynan shaxs mansub oilaning sotsial statusi uning keyingi mobilligi uchun fundamental rol o'ynaydi. Ajdodlarning sotsial mobillikka ta'sirini avlodlararo mobillikni va avlod ichidagi mobillikning ota-onalar holatiga va bolalik ijtimoiylashuvining boshqa shartlariga bog'liqligini o'rganish orqali aniqlash mumkin. Bundan tashqari, ota-onalarning ta'lim darajasi ham harakatlanish imkoniyatlariga ta'sir qiladi. Shu asnoda shakllangan shaxs mansub tabaqa imkoniyatlari ham uning keyingi sotsial mobilligi uchun bazis hisoblanadi. Hozirgi vaqtda yana bir muhim ko'rsatkich qo'shildi - ota-onalarning daromadlarini ta'limdagi mobillik imkoniyatlariga bog'liqligini ta'kidlab o'tish kerak. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, "kelib chiqish" xususiyatlari, garchi ular mobillik imkoniyatlariga jiddiy ta'sir qilsa ham, u insonni individual mobilligiga zid tushuncha sifatida mutlaqlashtimaslik kerak. Bunga misol tariqasida aka-ukalarning martaba yo'llarini sotsial mobillik natijasida turli darajadaga maqomga ega bo'lishi kabi hayotiy misollarni keltirib o'tish mumkin. Tabiiyki, bir oiladan bo'lgan bolalarda o'sib-ulg'ayish uchun shart-sharoitlar bir xil, ammo vertikal mobillikning yutuqlari va ko'rsatkichlariga ko'ra farqlanadi. Ko'p narsa jamiyat tomonidan ta'minlangan yuqoriga ko'tarilish imkoniyatlaridan foydalanishga ham bog'liq.

Sotsial mobillikka o'quvchi-yoshlarni qanday oilaga mansubligi ahamiyatli omil ekanligi qayd etildi. O'tkazilgan so'rovnomamizda "sizning ijtimoiy mobilligingizga oilangizni moddiy imkoniyati qay darajada ta'sir o'tkaza oladi savoliga" 33% respondent oilasi va o'zini moddiy ahvolini yanada yaxshilash uchun o'qishi kerakligini, 27% respondent oilasini moddiy xolati boshqalardan ko'ra kengroq harakat qila olishimga imkon berishini ta'kidlagan bo'lsa, 14% respondent oilasini moddiy imkoniyati bo'lganda yanada kengroq harakat qila olishini ta'kidlashgan, 26% respondent oilasini moddiy imkoniyati uning mobilligiga ta'sir etmasligini qayd etishgan.




1-rasm. O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy mobilligiga oilaning moddiy imkoniyati ta'siri

Umuman olganda, oilaviy kapital omillari ta'lim oluvchilarning sotsial mobilligiga ta'sir qiladi, ammo bu ta'sir mavjud yutuqlar va inson kapitaliga investisiyalarda ko'proq namoyon bo'ladi. Lekin bu vaziyatda manzara bir xil emas bir tomondan, yoshlarning o'quv yutuqlaridagi farqlar qisman oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy holatidagi farqlarga bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan, individual muvaffaqiyat ular o'qiyotgan ta'lim muassasalarining xususiyatlari bilan ham bog'liqdir.

Grafik model tahlili natijalari

Grafik model sotsial mobillikka ta'sir qiluvchi asosiy komponentlarni quyidagicha ifodaladi:

1. Oila tizimi: Oilaning iqtisodiy ta'minoti, sotsial mavqei va undagi ma'naviy qadriyatlar oila ta'siridagi sotsial mobillik imkoniyatlarni vujudga keltiradi.
2. Ta'lim tizimi: Sifatli ta'lim, moslashuvchan rejalar va zamonaviy ko'nikmalar sotsial yuksalishning kalitidir.
3. Yoshlarning individual faoliyati: Motivatsiya, qiziqish va ijodiy yondashuv sotsial mobillikka progressiv hissa qo'shadi.
4. Sotsial mobillik: Ushbu omillar birlashib sotsial mobillikning umumiy samaradorligini ta'minlaydi.



2-rasm. Sotsial mobillikni oshirish mexanizmi grafik modelda tasvirlangan

Oilada shakllanayotgan asosiy munosabatlar akademik muvaffaqiyatni yoki mehnatni ijtimoiy qadriyat sifatida tushunish, hayotda o'z o'rnini topa olish va samaradorlikka e'tiborni qaratish muhimligini masalasida asosan oilaning imkoniyatlariga qarab qolish kontekstida rivojlanishi ham mumkin. Bu esa bo'lajak mutaxassislarda mustaqil harakat qilishga kamroq o'rin qoldiradi, qaram kayfiyatlar shakllanishi mumkin. Lekin shunisi muhimki sotsial mobillik jarayonlarida oila imkoniyatlariga suyanish va shu asnodagi harakatlar kamroq xatolarga yo'liqtiradi. Aksar hayotiy tajribaga ega ota-onalar farzandlari regressiv sotsial mobillikka tomon yo'nalish olmasligi uchun o'z moliyaviy resurslarini sarflaydilar hamda ijtimoiy imkoniyatlaridan foydalanadilar.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafida ta'limning sotsial mobillikda roli tadqiq qilingan. Ta'lim ijtimoiy-gumanitar fanlarga doir tadqiqotlarda eng ko'p qo'llaniladigan ilmiy kategoriyalardan biridir. Qoida tariqasida, tadqiqotda ta'limni quyidagi aspektlarini tahlil qilishimiz mumkin: birinchidan, ma'lum bir jamiyatda shaxsni shakllantirishning individuallashtirilgan jarayoni sifatida va shaxsni ijtimoiy ahamiyatga ega tajriba bilan tanishtirish jarayoni sifatida; ikkinchidan, jamiyatda ma'lum vazifalarni bajaradigan maxsus ijtimoiy institut sifatida o'rganiladi. Ta'limning insonning cotsial mobilligini amalga oshirishga ta'sirining namoyon bo'lishi uning institutsional shaklining faoliyatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, ta'lim ijtimoiy hayotning eng muhim sohalardan biri sifatida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tajribani yangi avlodlarga yetkazish jarayoni tashkil etilib, ijtimoiy voqelikni yangilash va o'zgartirish vazifalarini bajaradi. Sotsial mobillik omili sifatida amaliyotga joriy etilgan ta'lim shaxslarni ijtimoiy tanlash, sinovdan

o'tkazish, taqsimlash va faoliyatini legallashtiradi, buning natijasida ijtimoiy guruhlar qayta shakllanadi.

Mazkur bobning uchinchi paragrafida xorijiy tajribada oila va ta'limning sotsial mobillikka ta'sir jarayonlari o'rganildi. Xususan, xorijiy tajribalardan Yoshlarni ta'lim orqali yuksalish imkoniyatlarini oshirish uchun AQSH hukumati Federal Pell Grant dasturi orqali kam ta'minlangan talabalarga moliyaviy yordam beradi. Pell grantlari kam ta'minlangan talabalar uchun federal grantlardir. Ko'pgina federal yordamlardan farqli o'laroq, bu grantlar qaytarilmasligi bilan jozibador va kam ta'minlanganlarga beriladigan imtiyozliri tajribalari o'rganildi. Shuningdek, Xalqaro hamjamiyat tomonidan Afrika yoshlarini sotsial mobillik imkoniyatlarini oshirish uchun "Oltin yoshlar" dasturi ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Mazkur dasturga ko'ra oldin xar-bir ko'makchi-stajyor 3 nafardan ko'makchi-stajyorlarni (fasilitator) tayyorlaydi va ular ham o'z navbatida qisqa muddatda o'zi kabi ko'makchilarni tayyorlaydi. Dastur bo'yicha ko'makchilarni asosiy maqsadi yosh afrikalik liderlarni o'z avlodlarini bilim, vositalar va qo'llab-quvvatlash bilan to'liq potensialini ro'yobga chiqarish va ijtimoiy xulq-atvorni o'zgartirish, ta'lim va ish o'rinlarini yaratishda aniq natijalarga erishish uchun safarbar qilish uchun rivojlantirishni ko'zda tutadi. Mazkur dastur bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga yoshlarni tayorlash uchun mahalliy maktablar va jamoalarga bir qator xizmatlar taqdim etilganligini ko'rish mumkin. Ozarbayjonda Yoshlar Fondi tashkil etilib, fan, ta'lim, madaniyat va yoshlar siyosatini samaradorligini ta'minlashga qaratilgan bir qator ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish, faol yoshlarga o'z imkoniyatlarini namoyon etishlariga ko'maklashish vazifalari belgilandi. Ushbu Fond 4 mingdan ortiq yirik ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishga erishgan¹⁰. Qozog'iston Respublikasida ham shunga o'xshash "Bolashak" dasturi orqali yoshlarga berilgan ta'limdagi yuksalish imkoniyatlari o'rganildi¹¹.

"O'zbekiston yoshlaridagi sotsial mobillik dinamikasi" deb nomlangan uchinchi bobida O'zbekiston ta'lim tizimidagi sotsial mobillikka jiddiy ta'sir o'tkazuvchi omillardan oila, mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlar, o'quvchi-yoshlarning moliyaviy jihatdan yaxshi ta'minlanganligi nafaqat ta'lim muassasalarida balki undan keyingi turmush kechirishlarida ham yuksalish omili sifatida qadrlanmoqda. Shuningdek oila va ta'lim orqali yoshlarda sotsial mobillik samaradorligini oshirish mexanizmlarini shartli ravishda tashqi (ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar) va ichki (kreativlik, ijodkorlik, startap loyihalarini yaratish, xorijiy tillarni o'rganish va informatsion texnologiyalarni o'zlashtirish) omillar natijasida yuzaga keladigan mobillik mexanizmlariga bo'lgan xolda o'rganildi.


Tadqiqot mavzusi yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomamizda o'quvchi-yoshlarning 80% mamlakatimizda amalga oshirilayotgan strukturaviy islohotlar ularni sotsial mobilligiga ijobiy ta'sir o'tkazishini bildirishgan. Yoshlarning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligi ularni bilim-ko'nikmalarni egallashiga ham o'zgarish kiritish mumkin. Shuningdek umuminsoniy qadriyatlarga adekvat holda tarbiyalanishi va davlat tomonidan

¹⁰ http://cbc.az/ru/v_story/video1517673079

¹¹ <https://bolashak.gov.kz/kz/o-kompanii>

yoshlar muammolariga alohida e'tibor berilishi, qo'llab-quvvatlash istiqbolda mamlakat, jamiyat va umuman millatning barqaror holatiga ishonchni ta'minlashi jamiyatda konstruktiv isloxotlarni qo'llab-quvvatlovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, yoshlar, o'z bilim darajasini oshirish orqali inson salohiyatini amalga oshirish mumkinligiga ishonadilar. So'rov ishtirokchilarining fikriga ko'ra, oliy ma'lumot olish ish haqining yuqori darajasi, martaba o'sishi, moddiy farovonlik va moliyaviy barqarorlikni kafolatlaydi.




3-rasm. O'quvchi-yoshlarni kelajak haqidagi tasavvurlari

So'rovlar shuni tasdiqlaydiki, zamonaviy yoshlar uchun hayotiy yo'nalishlarning ijtimoiylikdan xususiylikka o'zgarishi xosdir. Bu professional martaba nuqtai-nazaridan yoshlar qadriyatlariga ham tegishli. 43,2% yoshlarning fikriga ko'ra, ular uchun asosiy hayotiy intilishlardan biri bu - martaba, kasbiy o'sish yoki muvaffaqiyatli tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. respondentlardan "Agar kichik daromadli biznes faoliyati bilan shug'ullanish imkoni paydo bo'lsa o'qish faoliyatingizda o'zgarish qila olarmidingiz?" savoli bilan murojaat etganimizda ularni 49% imkon qadar o'qishni ham ishni ham birdek olib borish istagi borligini ta'kidlashdi. Bu jarayon ta'lim muassasalarini yoshlarni o'qishdan ajralmagan holda muayyan ish faoliyati bilan shug'ullanishlariga kengroq ochishga undaydi. Hozirgi kunda dunyodagi eng yuqori reytingda turuvchi oliy ta'lim muassasalari ham yoki boshqa ta'lim tashkilotlari ham talabalarni o'qishdan ajralmagan holdi ish faoliyatlarini olib borishi mumkinligini targ'ib qilishadi va bunga muassasalarni o'zlari yordam berish imkoniyatlarini borligini bildirib o'tishadi.

Tadqiqotlarga ko'ra ta'limdagi saviyasiz talabalar ulushini ikki barobar kamayishi mamlakat yalpi ichki mahsulotini kelajak 10-yillikda 2%ga, 20-yillikda 5-6%ga va 30-yillikda esa 10%ga o'sishiga zamin yaratadi¹². Ko'pgina tadqiqotlarda


¹² Зборовский Г. Е., Амбарова П. А. Социология высшего образования: монография. – Екатеринбург: Гуманитарный университет, 2019;. Кухтерина Е.А. Социальная мобильность молодежи. Дисс. ... канд. социол. наук: 22.00.04 / Е.А.Кухтерина. – Тюмень, 2005.

ham ta'limni eng samarali sotsial mobillik liftlari sifatida ota-onalar ham, yoshlar ham qayd etishgan. Sotsial mobillik jarayonlaridagi sotsial mexanizmlarni asosan; institutsional, tashkiliy va shaxsiy o'z-o'zini boshqarish mexanizmlariga ajratish mumkin. Ta'lim saralash mexanizmi sifatida barcha odamlarning haqiqiy qobiliyatlariga mos ravishda ijtimoiy qatlamlar va lavozimlarga aniq taqsimlanishini kafolatlamasada, biroq, ularning ijtimoiy maqomlarni qayta taqsimlashga, keskin qarama-qarshiliklarga yo'l qo'ymaslik va turli guruhlarining manfaatlarini muvozanatlash imkonini beradi. Talabalik davri inson hayotining nisbatan mustaqil bosqichi bo'lib, bu davrda u bugungi kunda shaxsni shakllantiruvchi omillar sifatida faoliyat yurituvchi faoliyatda ishtirok etadi va ijtimoiy mobillik orqali yangi sotsial maqomga erishiladi.




4-rasm. Ijtimoiy omillarni yoshlarni sotsial maqomini oshirish imkoniyatlari

